UO‘K 004.622

KATTA MA’LUMOTLAR OQIMINI QAYTA ISHLASH: KECHIKISHLARNI OPTIMALLASHTIRISH VA RESURSLARNI DINAMIK BOSHQARISH ALGORITMLARI TAHLILI

[+] *Boynazarov I.M.*[1], *Mamanov J.*[2], *Mahmudov J.I.*[1], *Esonboyev M.*[1],

[1] Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filiali, Samarqand, O‘zbekiston
[1] Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti, Denov, O‘zbekiston

[+] ilhomboy1974@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu tahliliy maqolada katta ma’lumotlar oqimini real vaqtda qayta ishlash tizimlarida kechikishlarni kamaytirish va resurslarni dinamik boshqarishga qaratilgan zamonaviy arxitektura, algoritm va yondashuvlar tizimli ravishda ko‘rib chiqildi. Maqolada Lambda, Kappa va gibrid arxitekturalarning xususiyatlari, cloud-native platformalar, shuningdek, Edge-Fog-Cloud gibrid muhitlari tahlil qilindi. Tarmoq va hisoblash darajasidagi kechikish omillari, ularni kamaytiruvchi usullar – operator joylashishi, vazifalarni uzatish (task offloading), RDMA texnologiyasi va mashina o‘rganishga asoslangan bashorat modellari o‘rganildi. Bulutli muhitda resurslarni dinamik boshqarish masalalari, shu jumladan reaktiv, proaktiv va gibrid avto-masshtablash algoritmlari, vaqt qatorlari asosidagi, chuqur o‘rganish va mustahkamlovchi o‘rganishga tayanuvchi yondashuvlar, ko‘p mezonli vazifalar rejalashtirilishi tahlil qilindi. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, eng yuqori samaradorlikka turli yondashuvlarni – proaktiv bashorat, gibrid avto-masshtablash va ML asosidagi qaror qabul qilishni – integratsiyalash orqali erishish mumkin. Hozirda hal etilmagan muammolar va istiqbolli tadqiqot yo‘nalishlari aniqlab olindi.

Kalit so‘zlar: katta ma’lumotlar, oqimli qayta ishlash, Lambda arxitekturasi, Kappa arxitekturasi, bulutli hisoblash, kechikish, operator joylashishi, avto-masshtablash, mashina o‘rganish, resurslarni dinamik boshqarish, Edge-Fog-Cloud.

1 KIRISH

Zamonaviy raqamli iqtisodiyotda ma'lumotlar hajmining misli ko‘rilmagan darajada o‘sishi – IoT qurilmalari, telekommunikatsiya tarmoqlari, sanoat sensori tizimlari va multimedia xizmatlari kabi manbalardan sekundiga millionlab hodisalar oqimining generatsiya qilinishi – an’anaviy batch-yo‘naltirilgan qayta ishlash modellarining imkoniyat chegarasidan oshib ketishi bilan xarakterlanadi [1, 2]. Dunyo aholisi 2050-yilga kelib 9.7 milliardga yetishi kutilayotgan bir sharoitda raqamli tizimlar ham murakkabligi va hajmi jihatidan misli ko‘rilmagan suratlarda o‘smoqda [8]. Bunday sharoitda real vaqt rejimida ishlovchi oqimli qayta ishlash tizimlari muhim ahamiyat kasb etib, ular yuqori o‘tkazuvchanlik, minimal kechikish va taqsimlanish imkoniyatlarini bir vaqtda ta’minlashi zarur [3].

Ushbu talablarni bajarish tizim arxitekturasi, resurslarni joylashtirish strategiyasi va tarmoq infratuzilmasi bilan chambarchas bog‘liq [9]. Lambda va Kappa arxitekturalari, shuningdek, cloud-native va Edge-Cloud gibrid platformalari bugungi kunda oqimli qayta ishlash tizimlarining asosiy arxitekturaviy modellariga aylangan [3, 4, 6]. Bir vaqtning o‘zida kechikishni kamaytirish va resurslarni samarali boshqarish masalalari tadqiqotchilar e'tiborini tobora ko‘proq jalb etmoqda [19, 21]. Cloud hisoblashning asosiy imtiyozlaridan biri – resurslarning elastikligi bo‘lib, bu foydalanuvchilarga talabga mos ravishda infrastruktura hajmini oshirish yoki kamaytirish imkonini beradi [2].

Bulutli muhitda resurslarni statik taqsimlash yondashuvlari yuklama o‘zgarishlariga moslasha olmasligi sababli ko‘pincha resurs yetishmovchiligi yoki ortiqcha ajratilish holatlariga olib kelmoqda [2, 23]. Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, ma’lumotlar markazlarida serverlarning o‘rtacha ish yuklanish koeffitsienti 5 foizdan 20 foizgacha bo‘lib, qolgan vaqt resurslar bekor turadi [2]. Shu sababli avto-masshtablash mexanizmlarini qo‘llash zarurati yuzaga kelmoqda. Reaktiv yondashuvlar tizimning joriy holatiga asoslanib qaror qabul qilsa, proaktiv yondashuvlar kelajakdagi yuklamani oldindan bashorat qilib, resurslarni oldindan ajratadi [3, 21].

Mashina o‘rganishi va chuqur o‘rganish usullari ushbu jarayonlarni yanada samaraliroq tarzda avtomatlashtirishga imkon bermoqda [25, 32]. Xususan, chuqur mustahkamlovchi o‘rganish (Deep Reinforcement Learning – DRL) algoritmlari murakkab, dinamik muhitlarda qaror qabul qilish uchun katta imkoniyatlar ochmoqda va bulutli hisoblashda vazifalarni rejalashtirilish va resurslarni boshqarish uchun eng istiqbolli yo‘nalishlardan biriga aylanmoqda [32]. Shu bilan birga, ko‘p mezonli optimallashtirish yondashuvlari bajarilish vaqti, energiya sarfi, kechikish va iqtisodiy xarajatlarni birgalikda muvozanatlashtirish imkonini beradi [24, 25].

Ushbu maqolaning maqsadi – katta ma’lumotlar oqimini real vaqtda qayta ishlash tizimlarida kechikishni optimallashtirish va resurslarni dinamik boshqarishga doir mavjud ilmiy tadqiqotlarni tizimli ravishda tahlil qilish, ularning afzalliklari va cheklovlarini aniqlash hamda istiqbolli tadqiqot yo‘nalishlarini belgilab olishdan iborat. Maqola ikkita o‘zaro bog‘liq ilmiy yondoshuv – oqimli qayta ishlash tizimlarining arxitekturalari va kechikishni optimallashtirish hamda resurslarni dinamik boshqarishni birgalikda tahlil qilishga asoslangan.

2 KATTA MA’LUMOTLAR OQIMINI QAYTA ISHLASH TIZIMLARI ARXITEKTURALARI

Katta ma’lumotlar oqimini qayta ishlash tizimlarining samaradorligi ko‘p jihatdan tanlangan arxitekturaviy modelga bog‘liq. Zamonaviy platformalar ma’lumotlarni qabul qilish, qayta ishlash va saqlash jarayonlarini qatlamli tuzilmalar orqali tashkil etadi, bu esa taqsimlanish va moslashuvchanlikni ta’minlaydi [3, 4]. Lambda va Kappa arxitekturalari, cloud-native platformalar hamda gibrid Edge-Fog-Cloud muhitlari bugungi kunda eng keng qo‘llaniladigan yondashuvlar hisoblanadi. Har bir yondashuv ma'lum qo‘llanilish holatlari, imkoniyatlari va cheklovlariga ega.

Katta ma’lumotlar – hajm (volume), tezlik (velocity), xilma-xillik (variety), ishonchlilik (veracity) va qiymat (value) kabi 5V xususiyatlari bilan tavsiflanadi [8]. Ushbu xususiyatlar an’anaviy ma’lumotlar bazasi tizimlari va qayta ishlash vositalarining imkoniyat chegarasidan oshib ketadi, bu esa yangi arxitekturaviy yechimlarni talab etadi. Shu maqsadda Lambda, Kappa va gibrid arxitekturalar paydo bo‘lgan.

2.1 Lambda arxitekturasi

Lambda arxitekturasi – ko‘p hajmli ma’lumotlarni batch va real vaqt qayta ishlashni birlashtirish orqali boshqarishga mo‘ljallangan gibrid model bo‘lib, u uchta asosiy qatlamdan iborat: batch qatlami, tezlik qatlami va xizmat ko‘rsatish qatlami [8, 34]. Batch qatlamda katta hajmli tarixiy ma’lumotlar Apache Hadoop yoki Spark kabi vositalarda qayta ishlanib, to‘liq va aniq ko‘rinish hosil qilinadi. Batch qatlam ma’lumotlarning doimiy saqlanish joyi (master dataset) vazifasini bajaradi va bu ma’lumotlar o‘zgarmas (immutable) ko‘rinishda saqlanadi.

Tezlik qatlamida esa real vaqt ma’lumotlari Apache Storm, Apache Flink yoki Spark Streaming yordamida qayta ishlanib, joriy hodisalarga tezkor javob beriladi [8]. Batch qatlami katta hajmli ma’lumotlarni qayta ishlashda juda ko‘p vaqt talab qilganligi sababli natijalar ko‘pincha yangilanmagan bo‘ladi. Tezlik qatlami ushbu bo‘shliqni eng so‘nggi ma’lumotlarni so‘rovlar asosida ta’minlash orqali bartaraf etadi. Nihoyat, xizmat ko‘rsatish qatlami (serving layer) yuqoridagi ikkala qatlamning natijalarini birlashtiradi.

Lambda arxitekturasining asosiy afzalligi – uning yuqori ishonchlilik va nosozliklarga bardoshlilikdir. Batch qatlam orqali ma’lumotlarning to‘liq tarixiy ko‘rinishi saqlanib, tezlik qatlami orqali esa eng so‘nggi ma’lumotlar asosida tezkor natijalar taqdim etiladi [11]. Ushbu ikki qatlamli yondashuv xatoliklarga nisbatan yuqori bardoshlilikni ta’minlaydi: agar tezlik qatlamida xato yuz bersa, batch qatlamning to‘liq va aniq ma’lumotlari asosida tizim tiklana oladi.

Biroq ushbu arxitekturaning muhim kamchiligi shundaki, batch va streaming komponentlari uchun bir xil biznes-mantiqni ikki alohida tizimda amalga oshirish talab etiladi. Bu esa tizim murakkabligini oshiradi va dasturiy ta’minot xarajatlarini ko‘paytiradi [3]. Bundan tashqari, ikkala tizim uchun alohida kod bazasini saqlash, yangilash va sinab ko‘rish operatsion yukni oshiradi. Lambda arxitekturasi yirik telekommunikatsiya kompaniyalari, moliya institutlari va aqlli shahar infratuzilmalarida keng qo‘llaniladi [13]. ADS-B ma’lumotlari asosida havo-yer kuzatuv tizimlarida qo‘llangan tadqiqot Lambda arxitekturasining turli og‘ir stsenariylarda 100% aniqlik darajasini ta’minlashini isbotlagan [34].

2.2 Kappa arxitekturasi

Kappa arxitekturasi Lambda arxitekturasining cheklovlarini bartaraf etish maqsadida Apache Kafka hammuassisi Jay Kreps tomonidan 2014-yilda taklif etilgan bo‘lib, u faqat bitta stream processing tizimidan foydalanadi [4]. Kappa arxitekturasida barcha ma’lumotlar – tarixiy yoki real vaqt – oqim sifatida ko‘rib

chiqiladi va ularning hammasi bitta stream processing mexanizmi orqali qayta ishlanadi [12]. Ushbu model Apache Kafka kabi o‘zgarmas jurnal (immutable log) atrofida quriladi.

Kappa arxitekturasida kiruvchi ma’lumot hodisalari markaziy o‘zgarmas jurnal – masalan, Kafka mavzusi – ga uzluksiz ravishda qo‘shib boriladi. Yagona stream processing mexanizmi (Apache Flink, Kafka Streams yoki Spark Structured Streaming) ushbu jurnalni o‘qib, real vaqt ko‘rinishlarini yoki kelib chiqartirilgan ma’lumotlar omborini yangilab boradi [4, 8]. Tarixiy ma’lumotlarni qayta ishlash zarur bo‘lganda, bir xil streaming mexanizmi tomonidan ma’lumotlar oqimi boshidan qayta ishlatiladi – bu batch qatlam talab etmasdan tarixiy tahlilni amalga oshirishga imkon beradi.

Kappa arxitekturasi IoT yo‘naltirilgan muhitlarda, jumladan aqlli qishloq xo‘jaligi tizimlarida muvaffaqiyatli qo‘llanilgan [4, 8]. Ushbu arxitekturaning asosiy ustunligi – tizim murakkabligini pasaytirishi va texnik xizmat ko‘rsatishni soddalashtirishi. Bitta kod bazasi va bitta qayta ishlash infratuzilmasini saqlab qolish ham ishlab chiqish xarajatlarini kamaytiradi. Yuqori o‘tkazuvchanlikka ehtiyoj va past kechikish talablari bo‘lgan ilovalarda Kappa arxitekturasi mos keladi.

Biroq Kappa arxitekturasi ham o‘ziga xos cheklovlarga ega. Tarixiy ma’lumotlarni qayta ishlashda zarur bo‘lganda, ma’lumotlar oqimini boshidan boshlab qayta ishlatish hisoblash resurslariga qo‘shimcha yuk tushirishi mumkin [34]. Bundan tashqari, barcha ma’lumotlarni oqim sifatida ko‘rib chiqish – jarayon va tarixiy ma’lumotlarning algoritmlar o‘zaro farq qiladigan murakkab holatlarda – ba’zan samarasiz bo‘lishi mumkin.

2.3 Cloud-Native oqimli qayta ishlash platformalari

Cloud-native arxitekturalar mikroservislar, konteynerizatsiya (Docker, Kubernetes) va orkestratsiya texnologiyalariga asoslanadi [6, 7]. Bunday muhitlarda stream processing pipeline-ning har bir funksional komponenti mustaqil xizmat sifatida ishlatiladi va alohida miqyoslanishi mumkin [3]. Shu sababli ma’lumotlarni qabul qilish, qayta ishlash, saqlash va tahlil qilish qatlamlarini bir-biridan ajratish moslashuvchanlikni oshiradi va alohida komponentlarni dinamik miqyoslash imkonini beradi.

Telekommunikatsiya ilovalarida cloud-native platformalar yuqori trafik sharoitida real vaqt tahlilotlari, monitoring va qaror qabul qilish vazifalarini samarali bajarishda kuchli qo‘llab-quvvatlashni ko‘rsatadi [13]. PROMENADE platformasi – aqlli shaharlar infratuzilmasini dinamik graflar orqali modellashtirib, Lambda va Kappa arxitekturalarini qo‘llagan holda real vaqt qayta ishlashni ta’minlovchi ochiq manbali cloud-native yechim – ushbu yondashuvning amaliy namunasi hisoblanadi [6]. Platforma Apache Kafka, MongoDB, Neo4J va Apache Spark kabi texnologiyalar to‘plamiga asoslanadi. OpenShift/Kubernetes muhitida joylashtirilgan platforma Lyon shahridagi yo‘l trafigi ma’lumotlarini (317,000 dan ortiq yo‘l segmenti) real vaqtda qayta ishlab, o‘rtacha 25 daqiqa kechikish bilan betweenness centrality ko‘rsatkichlarini hisoblab beradi [6].

WALLeSMART platformasi – Belgium Walloniya mintaqasidagi sutli fermer xo‘jaliklarini boshqarish uchun ishlab chiqilgan cloud-native yechim – Lambda arxitekturasiga asoslanib, Apache Kafka, Apache Storm va Hadoop vositalarini birlashtirib real vaqt va batch qayta ishlash imkoniyatlarini ta’minlaydi [8]. 30 ta fermer xo‘jaligi va 45 ta agrometerologik stansiyadan yig‘ilgan ma’lumotlar bilan sinovdan o‘tkazilgan ushbu platforma real vaqt ishlarini o‘rtacha 1 daqiqa 18 soniyada yakunlashi isbotlangan. Ma’lumotlar platformalari uchun jarayon-yo‘naltirilgan loyihalash metodologiyasi [7] AWS, Azure va Google Cloud ekotizimlarida optimal xizmatlar to‘plamini aniqlash uchun chiziqli dasturlash optimallashtirishiga asoslangan.

2.4 Gibrid Edge-Fog-Cloud arxitekturalari

Sof cloud asosidagi qayta ishlash vaqtga sezgir ilovalar – sanoat avtomatikasi, o‘z-o‘zini boshqaruvchi transport, real vaqt tibbiy monitoring – uchun nomaqbul kechikishni keltirib chiqarishi mumkin. Shu sababli Edge va Fog hisoblashni o‘z ichiga olgan gibrid arxitekturalar taklif etilgan [11, 14, 19]. Uch darajali Edge-Fog-Cloud modeli ma’lumot manbalari yaqinida dastlabki qayta ishlash (Edge), mintaqaviy aggregatsiya va koordinatsiya (Fog) va markazlashtirilgan murakkab tahlil (Cloud) funksiyalarini ajratib belgilaydi.

Edge-Cloud arxitekturasida dastlabki ma’lumotlarni filtrlash va agregatsiya ma’lumot manbalari yaqinida amalga oshiriladi, murakkab hisob-kitoblar esa cloud ma’lumotlar markazlarida bajariladi [19]. Bu yondashuv tarmoq trafigini kamaytiradi va javob vaqtini yaxshilaydi. Katta hajmli hisoblash vazifalari uchun moslashuvchan gibrid Edge-Cloud hamkorlik ofloading usuli [19] tarmoq kengligi va kechikish cheklovlarini hisobga olib, vazifalarni dinamik ravishda taqsimlash imkonini beradi.

PHWAN – Industry 4.0 aqlli ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan gibrid platforma bo‘lib, Edge-Cloud hamkorligini, past kechikishli tarmoq mexanizmlarini va xavfsizlik tizimlarini integratsiyalashgan holda real vaqt sanoat ilovalarini qo‘llab-quvvatlaydi [14]. Fog hisoblash Edge va Cloud o‘rtasidagi oraliq qatlam sifatida kechikishga sezgir tahlil va koordinatsiyani qo‘llab-quvvatlaydi. Aqlli energiya boshqaruv tizimida

Edge-Fog-Cloud gibrid freymvorki metasistematik optimallashtirish asosidagi bashorat bilan birgalikda qo‘llanganda energiya samaradorligini sezilarli oshirishi ko‘rsatilgan [20].

Ma’lumotlar platformalari uchun jarayon-yo‘naltirilgan loyihalash metodologiyasi [7] Lambda, Kappa va Lakehouse kabi arxitekturaviy andozalarni tanlab, optimal bulut xizmatlarini aniqlash uchun chiziqli dasturlash optimallashtirish muammosi sifatida formallashtiradi. Amalga oshirilgan ikkita real holdagi sinovlar – KPI Factory (Microsoft Azure) va Customer Lifetime Value bashorat (Google Cloud) – dasturiy ta’minotchilarsiz ham to‘g‘ri loyihalash erishish mumkinligini isbotlagan [7].

2.5 Arxitekturaviy modellarning qiyosiy tahlili

Lambda, Kappa va gibrid arxitekturalarni tanlash ko‘p jihatdan ilovaning o‘ziga xos talablariga bog‘liq. Lambda arxitekturasi tarixiy va real vaqt ma’lumotlarini bir vaqtda qayta ishlash kerak bo‘lgan holatlarda – masalan, moliyaviy tahlil, katta hajmli log-tahlil – afzal hisoblanadi. Kappa arxitekturasi faqat real vaqt ma’lumotlariga tayanadigan va sodda texnik tuzilishni afzal ko‘radigan ilovalar uchun – IoT monitoring, fraud detection, real vaqt tavsiyalar tizimlari – optimal tanlov. Gibrid yondashuvlar esa ikkala talabni bajarishni talab qiladigan murakkab sanoat tizimlarida qo‘llaniladi.

Texnologiyalar darajasida ham sezilarli farqlar mavjud. Lambda arxitekturasida Apache Hadoop yoki Spark batch qayta ishlash uchun, Apache Storm yoki Flink real vaqt uchun, Apache Kafka esa ikkala qatlam uchun xabar broker sifatida keng qo‘llaniladi [8]. Kappa arxitekturasida Apache Kafka markaziy immutable jurnal, Apache Flink yoki Kafka Streams esa yagona stream processing mexanizmi vazifasini bajaradi [4]. Cloud-native muhitlarda Kubernetes va Docker orkestratsiyasi barcha arxitekturalar bilan birga qo‘llaniladi, bu esa miqyoslanish va xatoliklarga bardoshlilikni ta’minlaydi [6].

Ushbu arxitekturaviy modellarning amaliy qo‘llanilishi turli sohalar uchun farqlanadi. Aqlli shaharlar kontekstida PROMENADE [6] platforma Lambda/Kappa tamoyillarini birlashtirib, grafga asoslangan shahar infratuzilmasi modelini real vaqtda yangilab boradi. Qishloq xo‘jaligi sohasida WALLeSMART [8] Lambda arxitekturasini sut fermalarini boshqarish uchun qo‘llab, batch va real vaqt qayta ishlashni birlashtirib samarali natijalar ko‘rsatadi. Telekommunikatsiyada [13] esa bulutli platformalar yuqori trafik ostida real vaqt qaror qabul qilish uchun keng qo‘llanilmoqda. Har bir soha o‘ziga xos kechikish talablari, ma’lumot hajmi va arxitektura cheklovlarini talab etadi.

Arxitektura tanlash jarayonida ma’lumotlar platformalari uchun jarayon-yo‘naltirilgan metodologiya [7] muhim amaliy vosita hisoblanadi. Ushbu metodologiya ma’lumot oqimi diagrammasi (DFD) asosida optimal bulut xizmatlarini tanlashni chiziqli dasturlash masalasi sifatida formallashtiradi. Shunday qilib, Lambda yoki Kappa arxitekturasi xususiyatlarini o‘z ichiga olgan arxitekturaviy andozalar (design patterns) avtomatik ravishda aniqlanadi va tegishli xizmatlar bilan bog‘lanadi. Ushbu yondashuv AWS va Microsoft Azure kabi turli ekotizimlarda sinab ko‘rilgan va ekspert tavsiyalariga yaqin natijalarga erishilgan [7].

3 OQIMLI QAYTA ISHLASH TIZIMLARIDA KECHIKISH VA O‘TKAZUVCHANLIK

Kechikish va o‘tkazuvchanlik oqimli qayta ishlash tizimlarida xizmat sifatini (QoS) belgilovchi eng muhim ko‘rsatkichlar hisoblanadi. Ko‘plab real vaqt ilovalari yuqori ma’lumotlar qabul qilish tezligini saqlab, juda past javob vaqtini talab etadi [9, 14]. Ushbu ikkita ko‘rsatkich o‘rtasidagi muvozanat murakkab muammo bo‘lib, zamonaviy tadqiqotlar ularni birgalikda optimallashtirishga qaratilgan [9]. Xizmat darajasi kelishuvi (SLA) buzilishi ham resurs boshqaruvi sifatini baholashda asosiy mezon hisoblanadi.

3.1 Kechikish va o‘tkazuvchanlik tushunchalari

Kechikish (latency) – ma’lumot elementi yaratilgan paytdan boshlab uning qayta ishlash natijasi mavjud bo‘lgunga qadar o‘tgan umumiy vaqtni anglatadi. Bu davr ma’lumotlarni uzatish vaqti, navbatdagi kutish vaqti va amaliy qayta ishlash vaqtini o‘z ichiga oladi. O‘tkazuvchanlik esa birlik vaqt ichida qayta ishlanadigan ma’lumotlar miqdorini bildiradi. Sanoat va telekommunikatsiya tarmoqlarida past kechikishli uzatish mexanizmlarini joriy etish tizimning umumiy javob berish qobiliyatini sezilarli yaxshilaydi [15, 16]. Yuqori o‘tkazuvchanlikli stream processing frameworklari sekundiga millionlab hodisalarni qabul qilish qobiliyatiga ega bo‘lishi lozim [9].

Kechikish va o‘tkazuvchanlik o‘rtasida o‘zaro bog‘liqlik mavjud: o‘tkazuvchanlikni oshirish ko‘pincha resurs bandligining ortishiga va shu orqali qayta ishlash kechikishining oshishiga olib keladi [9]. SLA talablarini bajarmaslik tizimning amaliy qiymatini sezilarli darajada pasaytiradi. Masalan, kechikish 40 soniyadan oshgan taqdirda foydalanuvchilar platformani tark etishi mumkin – bu hol Friendster ijtimoiy tarmog‘ining tanazzulida namoyon bo‘lgan [2]. Shu sababli kechikish va o‘tkazuvchanlikni bir vaqtda optimallash muhim ahamiyat kasb etadi.

MapReduce modelida sekinlovchi vazifalar muammosi ham kechikish nuqtai nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi. So‘nggi bir nechta map yoki reduce vazifalarni odatdagidan ancha uzoq vaqt bajaradigan mashinalar butun operatsiyaning yakunlanish vaqtini oshirishning keng tarqalgan sabablaridan biri hisoblanadi [1, 4]. Zaxira vazifalarni (backup tasks) rejalashtirish mexanizmi bu muammoni amalda hal etib, sort operatsiyasining bajarilish vaqtini 44% ga qisqartirib bo‘lishini isbotlagan [1].

3.2 Tarmoq darajasidagi kechikish omillari

Tarmoq darajasidagi kechikish kengligi, marshrutlash strategiyalari, paket yo‘qotilishi va qayta uzatishlar bilan bog‘liq. 5G va undan keyingi avlod tarmoqlarida ko‘p ulanish (multi-connectivity) va paketlarni takrorlash (packet duplication) texnikalari ishonchlilikni oshirish va uchidan-uchiga kechikishni kamaytirish uchun qo‘llaniladi [16]. Dinamik paketlarni takrorlash algoritmining 5G NR-DC tarmoqlarida mobillik sharoitida ishonchliligi va past kechikishliligini ta’minlashda samarali ekanligi isbotlangan [16].

RDMA asosidagi ma’lumotlarni uzatish texnologiyalari yadroi darajasidagi ishlov berishni chetlab o‘tib, an’anaviy TCP/IP aloqaga nisbatan sezilarli darajada past kechikishni ta’minlaydi [17]. RDMA yadro tomonidan ishlov berishni chetlab o‘tish orqali tarmoq kechikishini mikrosekund darajasiga tushirish imkonini beradi. Bu texnologiyalar, ayniqsa, ma’lumot intensiv stream processing pipeline-lari uchun juda foydali. Sanoat 50G-PON tarmoqlarida katta ulanishlar uchun past kechikishni ta’minlovchi tarmoq samaradorligi baholash mezonlari modeli [15] ushbu sohadagi tadqiqotlarning muhim qismini tashkil etadi.

MapReduce klasterlarida ommabop ma’lumotlarga nisbatan yuqori mos kelish holatlari sezilarli muammo hisoblanadi. Microsoft Bing klasterining 6 oylik ishlab chiqarish jurnallari tahlili shuni ko‘rsatdiki, eng ommabop ma’lumotlarning 12 foizi eng past uchdan bir qismdagi ma’lumotlarga qaraganda 10 martadan ko‘proq kuzatiladi; 18 foiz ma’lumot kamida uch bir vaqtli kirish operatsiyasiga ega [4]. Ushbu hotspot muammosi mahsulot operatsiyalarida Dryad ishi bajarilish vaqtini median bo‘yicha 16,7% ga oshiradi. Scarlett tizimi ushbu muammoni ma’lumotlarning kirish naqshlari asosida fayllarni maqsadli replikatsiya qilish yo‘li bilan hal qilib, Hadoop ishlarini median bo‘yicha 20,2% ga tezlashtiradi [4].

3.3 Hisoblash darajasidagi kechikish omillari

Hisoblash darajasidagi kechikish asosan hisoblash resurslarining yetishmasligi, operatorlarni noto‘g‘ri joylashtirish va klaster tugunlari bo‘yicha ish yukini notekis taqsimlashdan kelib chiqadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, stream processing operatorlarini optimal joylashtirish tugunlar orasidagi aloqa xarajatlarini va umumiy kechikishni sezilarli kamaytirishi mumkin [9]. Operator joylashishi masalasi yo‘naltirilgan asiklik graflar (DAG) asosida optimallash muammosi sifatida formallashtirilib, yechiladi.

Kechikishni hisobga olgan operator joylashishi standart rejalashtirish strategiyalariga nisbatan javob vaqtini sezilarli darajada kamaytirishi isbotlangan [9]. Moslashuvchan oqim boshqaruvi ham qayta ishlash parametrlarini joriy tizim holatiga qarab dinamik tarzda sozlash imkonini beradi – masalan, oqim tezligi, oyna o‘lchami va bufer siyosati – tirbandlik va navbat kechikishining oldini olish uchun [9].

Qo‘shimcha ravishda, Edge yoki Fog tugunlariga vazifalarni uzatish kechikishga sezgir hisob-kitoblarni ma’lumot manbalari yaqinida bajarishga imkon beradi [19]. Cloud gaming ilovalarida real vaqt kechikishni bashorat qilish uchun yangi usullar ishlab chiqilmoqda [31]. Petri Net asosidagi freymvork Edge Cloud Continuum muhitida resurslarni rejalashtirish siyosatlarini modellashtirish va simulyatsiya qilishda qo‘llanilmoqda [30]. Mashina o‘rganishiga asoslangan bashorat modellari kelajakdagi ish yukini taxmin qilish va resurslarni proaktiv tarzda ajratish, shu orqali navbatdagi kechikishlar va qayta ishlash kechikishlarini kamaytirishda tobora ko‘proq qo‘llanilmoqda [18, 22].

3.4 IoT va real vaqt ilovalarida kechikish talablari

Internet of Things (IoT) qurilmalar sonining misli ko‘rilmagan darajada o‘sishi – 2023-yilga kelib global miqyosda 12 millionga yaqin qishloq xo‘jaligi sensori o‘rnatilishi kutilgan [8] – oqimli qayta ishlash tizimlariga yangi kechikish talablarini qo‘ymoqda. Industrial IoT ilovalarida – to‘liq avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish liniyalari, real vaqt tibbiy monitoring, o‘z-o‘zini boshqaruvchi transport – kechikish millisekundlar darajasida bo‘lishi zarur bo‘lsa, aqlli qishloq xo‘jaligi tizimlarida bir necha daqiqali kechikish ham qabul qilinishi mumkin [6, 8].

IoT qurilmalar tomonidan yaratilgan ma’lumotlar hajmi ham tobora oshib bormoqda. IBM ma’lumotlariga ko‘ra, o‘rtacha bir fermer xo‘jaligi kuniga yarim million ma’lumot nuqtasini generatsiya qiladi [8]. Bunday katta hajmdagi ma’lumotlarni bulutga uzatish va u yerda qayta ishlash ko‘pincha tarmoq bottleneck-lari va kechikish muammolarini keltirib chiqaradi. Shu sababli Edge va Fog hisoblash paradigmasi IoT ilovalarida ayniqsa muhim: dastlabki ma’lumotlarni qurilma yaqinida qayta ishlab, faqat zarur axborotni bulutga yuborish tarmoq yukini sezilarli kamaytiradi [14, 19].

PROMENADE platformasining yo‘l trafigi monitoring ilovasi [6] IoT ma’lumotlarini real vaqtda qayta ishlashning yaxshi namunasidir. GPS qurilmali avtomobillardan sekundiga katta hajmda kelayotgan ma’lumotlar Edge qatlamida agregatsiya qilinib (3 daqiqalik oraliqlar uchun o‘rtacha sayohat vaqti hisoblanadi), so‘ngra bulut platformasiga yuboriladi. Bu yondashuv tarmoq yukini sezilarli kamaytiradi va end-to-end kechikishni boshqariladigan chegarada ushlab turadi [6]. Shu kabi WALLeSMART platformasida [8] sensorlar ma’lumotlari MQTT broker orqali real vaqtda qabul qilinib, Apache Storm yordamida darhol qayta ishlanadi, natijalar esa PostgreSQL va Cassandra ma’lumotlar bazalarida saqlanadi.

4 BULUTLI MUHITDA RESURSLARNI DINAMIK BOSHQARISH

Bulutli va klaster hisoblash muhitlarida resurslarni boshqarish hisoblash quvvati, tezkor va doimiy xotira, saqlash tizimlari hamda tarmoq resurslaridan samarali va muvozanatli foydalanishni ta'minlashga qaratilgan murakkab boshqaruv jarayonlari majmuasidir [2, 23]. Zamonaviy ilovalar dinamik va notekis yuklama sharoitida ishlashi sababli resurslarni statik taqsimlash ko‘pincha past samaradorlikka, resurs tanqisligiga yoki ortiqcha ajratilish holatlariga olib keladi.

4.1 Resurslarni boshqarish asoslari va navbat nazariyasi

Resurslarni boshqarish tizimlarining asosiy maqsadi xizmat sifati (QoS) talablarini ta'minlagan holda hisoblash infratuzilmasidan maksimal darajada samarali foydalanishdir [3]. Bunda kechikish, o‘tkazuvchanlik, energiya sarfi hamda iqtisodiy xarajatlar kabi ko‘rsatkichlar asosiy baholash mezonlari sifatida qaraladi [24]. SLA (Service Level Agreement) esa xizmat ko‘rsatuvchi va foydalanuvchi o‘rtasidagi kelishuv bo‘lib, minimal QoS talablarini belgilaydi.

Navbat nazariyasi (queueing theory) resurslarni dinamik boshqarish tizimlarini modellashtirish uchun keng qo‘llaniladigan matematik asosdir [5]. Kendall notatsiyasi (A/B/C/K/N/D) navbat modellarini standart tarzda tavsiflovchi usul bo‘lib, M/M/1 eng oddiy Puasson-asosli model hisoblanadi. Bulutli muhitdagi elastik ilovalar stsenariysi G/G/n navbat modeli orqali formallashtirilishi mumkin, bunda n o‘zgaruvchan serverlar soni. Little qonuniga ko‘ra tizimda o‘rtacha mijozlar soni E[C] = lambda * E[T] tenglamaga asoslanadi. Ushbu qonun navbatdagi o‘rtacha kutish vaqtini va zarur server sonini aniqlashda keng qo‘llaniladi [5, 3].

Resurslarni taqsimlash (Resource Allocation) – mavjud hisoblash resurslarini foydalanuvchi ilovalari va bajarilayotgan vazifalar o‘rtasida optimal tarzda taqsimlash jarayonidir. Ko‘plab tadqiqotlarda ushbu masala ko‘p mezonli optimallash muammosi sifatida qaraladi. Bunda bajarilish vaqti, energiya sarfi, iqtisodiy xarajatlar hamda SLA buzilishi ehtimoli birgalikda hisobga olinadi [24, 25]. Gorizontal masshtablash ilova instansiyalarining sonini oshirish yoki kamaytirish orqali amalga oshirilsa, vertikal masshtablash mavjud instansiyaga qo‘shimcha CPU, xotira yoki saqlash resurslarini ajratishni nazarda tutadi [3, 21].

4.2 Avto-masshtablash algoritmlari

Avto-masshtablash mexanizmlari bulutli va oqimli hisoblash muhitlarida resurslarni dinamik boshqarishning asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi [21]. Ushbu mexanizmlar tizim yuklamasidagi o‘zgarishlarga mos ravishda hisoblash resurslarini avtomatik ravishda oshirish yoki kamaytirishni ta'minlaydi. Avto-masshtablashning asosiy maqsadi SLA talablarini buzmasdan xizmat sifatini saqlab qolish hamda resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishdan iborat. Avto-masshtablash jarayoni MAPE (Monitor-Analyze-Plan-Execute) tsikliga mos keladi va to‘rt asosiy bosqichdan – monitoring, tahlil, rejalashtirish va ijro etish – iborat [3].

Reaktiv avto-masshtablash algoritmlari joriy tizim holatini monitoring qilish asosida qaror qabul qiladi [21]. CPU yuklamasi, xotira bandligi yoki tarmoq trafiki kabi ko‘rsatkichlar oldindan belgilangan chegaraviy qiymatlardan oshganda yangi instansiyalar ishga tushiriladi, yuklama pasayganda instansiyalar soni kamaytiriladi. Masalan: 'Agar CPU yuklamasi 70% dan yuqori bo‘lsa, 5 daqiqa davomida, ikkita instansiyani qo‘sh va 10 daqiqa harakatlanma' kabi qoidalar asosida ishlaydi [3].

Amazon EC2, RightScale va boshqa bulut platformalarida aynan ushbu turdagi chegaraviy qoidalar standart sifatida taqdim etiladi. Reaktiv yondashuvlarning asosiy afzalligi ularning soddaligi va amaliyotda oson joriy etilishidadir. Biroq reaktiv yondashuvning asosiy kamchiligi – resurslar faqat yuklama oshgandan so‘ng ajratiladi. Natijada qisqa muddatli yuklama sakrashlari paytida tizim kechikishlari ortishi va SLA buzilishi ehtimoli yuzaga keladi [21]. Chegaraviy qiymatlarning noto‘g‘ri sozlanishi tizim tebranishiga (oscillation) – ya'ni instansiyalar sonining ketma-ket oshib-kamayib turishiga – olib kelishi mumkin [3].

Proaktiv avto-masshtablash algoritmlari kelajakdagi yuklamani oldindan bashorat qilishga asoslanadi [21]. Bu yondashuv tarixiy monitoring ma’lumotlari – CPU yuklamasi, xotira bandligi, tarmoq trafigi –

tahlil qilinib, resurs ehtiyoji taxmin qilinadi va zarur resurslar yuklama oshishidan oldin ajratiladi. Proaktiv yondashuv VM ishga tushirish vaqtini hisobga olishi jihatidan ham muhim: yangi virtual mashina mavjud bo‘lishi uchun bir necha daqiqa talab etilishi mumkin [3].

Bulut resurslarini ta'minlash uchun vaqt qatorlari bashorat algoritmlarining chiqishini yaxshilash [22] ushbu yo‘nalishdagi muhim tadqiqot hisoblanadi. Ushbu usul cloud resurslarini ta'minlash aniqligini sezilarli darajada oshiradi va SLA buzilish ehtimolini kamaytiradi. Ko‘p o‘lchamli vaqt qatorlari asosidagi yondashuvlar [27] bir vaqtning o‘zida bir nechta metrikani – CPU, xotira, tarmoq trafigi – hisobga olib, bashorat aniqligini oshiradi. Biroq bashorat xatolari noto‘g‘ri masshtablash qarorlariga olib kelishi mumkin, bu esa proaktiv yondashuvlarning asosiy cheklovlaridan biri hisoblanadi.

Gibrid avto-masshtablash algoritmlari reaktiv va proaktiv yondashuvlarning afzalliklarini birlashtiradi [21]. Proaktiv modul uzoq muddatli bashoratni amalga oshirsa, reaktiv modul qisqa muddatli keskin o‘zgarishlarga tezkor javob beradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, gibrid yondashuvlar mikroservis arxitekturalarida yuqori barqarorlikni ta'minlab, resurslardan foydalanish samaradorligini oshiradi va SLA buzilishini kamayishi mumkin [21]. Ali-Eldin va boshqalar tomonidan taklif etilgan adaptiv gibrid elastiklik kontrolleri [3] ushbu yondashuv bo‘yicha yaxshi misol hisoblanadi: scale up uchun reaktiv, scale down uchun esa proaktiv nazorat qo‘llaniladi.

Mikroservis arxitekturalari uchun mo‘ljallangan resurs-samarali reaktiv va proaktiv avto-masshtablash tizimi [21] ushbu yo‘nalishda muhim qadam hisoblanadi. Container asosidagi bulutli hisoblash muhitida ko‘p mezonli vazifalarni rejalashtirish algoritmi (VBDPA) [24] ham gibrid yondashuvning amaliy namunasi sifatida bajarilish vaqti, energiya sarfi va SLA buzilishini birgalikda minimallashtiradi. Private cloud uchun resurs taqsimlash va foydalanish to‘g‘risidagi real ma’lumotlar to‘plami [26] gibrid avto-masshtablash algoritmlarini sinovdan o‘tkazish uchun qimmatli manba hisoblanadi.

4.3 Resurslarni boshqarishda iqtisodiy jihatlar

Bulutli hisoblashning asosiy iqtisodiy afzalliklaridan biri – to‘g‘ridan-to‘g‘ri operatsion xarajatlarga o‘tish (CapEx dan OpEx ga) imkonidir [2]. Foydalanuvchilar zarur bo‘lganda resurslarni kiralaydi va foydalanmayotganda ozod qiladi. Bu elastiklik kichik kompaniyalarga katta kapital investitsiyalarsiz o‘z bizneslarini tez kengaytirish imkonini beradi. Animoto kabi real dunyo misollari ham ushbu elastiklikning muhimligini ko‘rsatadi: platforma uch kunda 50 serverdan 3500 serverga ko‘tarilishga majbur bo‘lgan va aynan bulutli elastiklik bu surur oshishni moliyaviy jihatdan mumkin qilgan [2].

Resurslarni haddan tashqari ko‘p ajratish (over-provisioning) va kam ajratish (under-provisioning) ikkala holat ham iqtisodiy ziyon keltiradi. Over-provisioning holda foydalanilmayotgan resurslar uchun to‘lov amalga oshiriladi, under-provisioning holda esa xizmat sifatining yomonlashuvi foydalanuvchilarni yo‘qotishga olib keladi [2]. Shu sababli avto-masshtablash algoritmlari faqat texnik emas, balki iqtisodiy optimal yechim izlashi lozim. Xarajatlarni minimallashtirishga qaratilgan avto-masshtablash tizimi [21] aynan shu muvozanatni topishga harakat qiladi – xizmat sifatini buzmasdan xarajatlarni kamaytirish.

Bulutli resurslarni ta'minlash xarajatlari ko‘p omilga bog‘liq: VM turi va hajmi, foydalanish soatlari soni, ma’lumot uzatish hajmi va qo‘shimcha xizmatlar. Container asosidagi muhitlarda resurs granularlikni boshqarish yanada osonlashgan – Docker konteynerlar VM larga qaraganda tezroq ishga tushadi va resurslarni mikrodarajada ajratish imkonini beradi [6]. Bu holat cloud-native ilovalar uchun avto-masshtablash samaradorligini yanada oshiradi.

1-jadval. Avto-masshtablash algoritmlarining qiyosiy tahlili

Mezon	Reaktiv	Proaktiv	Gibrid
Qaror qabul qilish asosi	Joriy monitoring	Yuklama bashorati	Monitoring + bashorat
Javob berish tezligi	O‘rtacha	Yuqori	Yuqori
SLA buzilish ehtimoli	Yuqori	Past	Juda past
Bashoratga bog‘liqlik	Yo‘q	Yuqori	O‘rtacha
Hisoblash murakkabligi	Past	O‘rtacha	Yuqori
Amaliy joriy etish	Oson	O‘rtacha	Murakkab
Kechikishga sezgir ilovalar	Past moslashuv	O‘rtacha moslashuv	Yuqori moslashuv

5 MASHINA O‘RGANISHGA ASOSLANGAN YONDASHUVLAR

So‘nggi yillarda mashina o‘rganishi (ML) texnologiyalarining jadal rivojlanishi resurslarni dinamik taqsimlash va avto-masshtablash jarayonlarini avtomatlashtirishda yangi imkoniyatlarni ochmoqda [25, 32]. ML asosidagi yondashuvlar an'anaviy qoidaga asoslangan mexanizmlarga nisbatan murakkab bog‘lanishlarni aniqlash, noaniqlik sharoitida qaror qabul qilish hamda moslashuvchan boshqaruvni amalga oshirish qobiliyatiga ega [22, 27]. ML yondashuvlari odatda uch asosiy guruhga bo‘linadi: vaqt qatorlari usullari, chuqur o‘rganish modellari va mustahkamlovchi o‘rganish.

5.1 Vaqt qatorlari asosidagi yondashuvlar

Vaqt qatorlari asosidagi yondashuvlarda tizimning tarixiy monitoring ma'lumotlari – CPU yuklamasi, xotira bandligi va tarmoq trafigi – tahlil qilinib, kelajakdagi resurs ehtiyoji bashorat qilinadi. ARIMA (Auto-Regressive Integrated Moving Average), SARIMA va regressiya modellariga asoslangan yondashuvlar bulutli resurslarni ta'minlash uchun keng qo‘llanilmoqda [22]. Ushbu modellar trend va mavsumiylikni aniqlashda samarali bo‘lsa-da, murakkab nolinchi bog‘lanishlarni to‘liq ifodalay olmasligi mumkin.

Bulut resurslarini ta'minlash uchun vaqt qatorlari bashorat algoritmlarining chiqishini yaxshilash [22] ARIMA-ga nisbatan aniqlikni sezilarli oshiradigan yangi usullarni taklif etadi. Ko‘p o‘lchamli vaqt qatorlari (multi-time series) asosidagi yondashuvlar [27] bir vaqtning o‘zida bir nechta metrikani hisobga olib, bashorat aniqligini oshiradi. Natijada proaktiv avto-masshtablash mexanizmlarining samaradorligi sezilarli darajada yaxshilanadi hamda SLA buzilish ehtimoli kamayadi. Cloud resurslaridan foydalanishni yaxshilash uchun optimallashtirilgan ko‘p vaqtli qatorlar bashorati [27] annual bashorat xatosini kamaytirishda yangi natijalarga erishadi.

ML asosidagi ish yukini bashorat qilish va oqimli ilovalar ofloadingini samarali amalga oshirish uchun vazifalarni klasterlash tizimi – ML WPStreamCloud [18] – ish yukini oldindan bashorat qilib, vazifalarni klasterlash orqali cloud resurslarini ta'minlash samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu tizim stream ilovalarini ofloading qilishning xarajatlarini kamaytirish va SLA talablarini bajarish uchun mo‘ljallangan.

5.2 Chuqur o‘rganish modellari

Chuqur o‘rganish modellari (LSTM, GRU, CNN) murakkab va nolinchi bog‘lanishlarni o‘rganish qobiliyati bilan ajralib turadi. LSTM (Long Short-Term Memory) va GRU (Gated Recurrent Unit) modellari vaqt qatorlaridagi uzoq muddatli bog‘liqliklarni aniqlashda ayniqsa samarali. LSTM asosidagi bashorat modellaridan foydalanish proaktiv avto-masshtablash aniqligini sezilarli oshirishi ko‘plab ilmiy ishlarda isbotlangan [22, 27].

Cloud ma'lumot markazlarida energiya samarali vazifalarni rejalashtirish uchun DRL ko‘plab tadqiqotlarda qo‘llanilmoqda [33]. Future Generation Computer Systems jurnalida chop etilgan tadqiqotda DRL asosidagi vazifalar rejalashtirgichi enerija sarfini kamaytirish, vazifa bajarish foizini oshirish va boshqa baseline modellarga nisbatan ustunligini ko‘rsatgan [33]. Biroq chuqur o‘rganish modellarini o‘qitish uchun katta hajmdagi sifatli ma'lumotlar talab etiladi va model xarajati nisbatan yuqori. Shu sababli kam ma'lumotli sharoitlarda chuqur o‘rganish modellarini qo‘llash cheklangan bo‘lishi mumkin.

5.3 Mustahkamlovchi o‘rganish yondashuvlari

Mustahkamlovchi o‘rganish (RL) yondashuvlarida agent muhit bilan o‘zaro ta'sir orqali optimal boshqaruv siyosatini shakllantiradi [25]. Agent har bir qabul qilingan qaror natijasida mukofot (reward) oladi va vaqt o‘tishi bilan eng samarali strategiyani o‘rganadi. Q-learning – RL algoritmlarining eng keng tarqalgan turi bo‘lib, Q-qiymat funksiyasi (action-value function) orqali har bir holat uchun eng yaxshi amalni aniqlaydi.

